

EFTALITLAR DAVLATI TASHQI SIYOSATI VA UNING QO'SHNI HUDUD VA XALQLAR TARIXIDAGI AHAMIYATI

Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li

Urganch davlat universiteti Arxeologiya yo'nalishi magistranti

Normetova Mahfuza Alisher qizi

Urganch Davlat Universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik yo'nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida tashkil topgan davlatlar va ularning ichida eng yuksagi Eftalitlar davlati vujudga kelishi, tashqi siyosati va parchalanishi bayon qilinib, uning faoliyati davomida tarixda qoldirgan izlari va ta'sirlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Eftalitlar, kidariylar, Kushon imperiyasi, Axshunvar, Toromana, Mixirakula, Gاتفara, Eron, sosoniylar, E.N. Uspenskaya, rajputlar, Xusrav I.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan Kushon imperiyasi o'z davrida dunyoning eng qudratli davlatlari qatorida bo'lgan va Rim imperiyasiga qiyoslangan. Bu davlat milodiy III asrning 30-yillarida tugatilishi bilan uning o'rnida bir qancha mustaqil davlatlar vujudga keldi. Bu hududda dastlab Xioniylar, keyinchalik Kidariylar va Eftalitlar davlatlari shakllanadi.

Yuqoridagi davlatlar O'rta Osiyo hududida ketma-ket hukmronlik qiladilar va bu yerdan o'tgan Buyuk ipak yoli tarmoqlarini nazoratga olib, faol tashqi siyosat olib boradilar, Ayniqsa, Eftalitlar davlati tashqi qo'shnilariga ta'siri jahon tarixi va undagi voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

NAZARIY QISM

Faqat Eftalitlar davlatigina Kushon imperiyasining munosib davomchi bo'ldi. Uning hududlari Kushon imperiyasi hududlaridan keng bo'lsada mustahkam emas edi. Bu davlat boshqaruvi harbiy kuchga tayangan, ijtimoiy tuzulishiga ko'ra yer-mulk munosabatlariga asoslangan shaklda edi. Mamlakat bir necha mulklar birlashuvidan iborat bo'lgan. Xitoy, Suriya va Arman manbalarida Axshunvar, Toromana, Mixirakula, Gاتفara, Faronish kabi hukmdorlar sanab o'tiladi. Ular faol tashqi siyosat olib borib, davlat hududlarini kengaytirganlar. Manbalarda sanab o'tiladigan hukmdorlarning ko'pchiligi markaziy hokimiyat boshlig'i bo'lmasdan, mahalliy yirik feodal mulk egalari bo'lishgan.

Eftalitlar Xushnavaz (Axshunvar)¹ boshchiligida 457-yildan e'tiboran Chag'oniyon, Tohariston va Badaxshonni bo'ysundiradilar². Eftalitlar davlati janubiy qo'shnisi bo'lgan Sosoniylar davlati bilan urushlar olib borishga majbur bo'ladi. Tobora Eftalitlar davlatining qudrati oshib boradi va Sosoniylar hukmdori Peroz mamlakar shimolida shakllangan qudratli Eftalitlar davlati xavfini anglab, eftalitlarga qarshi bir necha bor urushga kiradi. Perozning muvaffaqiyatsiz yurishlari oqibatida Eron Eftalitlarga hiroj to'lash majburiyatini oladi va buni aholiga har bir kishi uchun og'ir bo'lgan jon boshi soliqlari solish yo'li bilan to'laydi.³

Keyinchalik Eftalitlar Qobul va Panjob vodiysini, Qarashar, Urumchi (490), Qoshg'ar (497-509) va Xo'tanni ham zabt etadilar⁴. Shu tariqa Eftalitlar davlati Kushon imperiyasi siyosatini davom ettirib, Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan davlatga asos soladilar.

Sosoniylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti Eftalitlarga katta hajmda o'lpon to'lab turilishi oqibatida inqirozga uchraydi. Buning ta'sirida Sosoniylarning ichki hududlarida markazga bo'ysunmaslik harakatlari kuchayib boradi. Xususan, 450-451 va 481-484-yillarda Kavkazortida qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi⁵.

Eftalitlar davlatiga qarshi urush va ichki kurashlar oqibatida ojizlashgan Sosoniylar davlati hukmdorlari o'zlarining azaliy dushmani bo'lgan Vizantiya imperiyasi bilan yaqinlashishga majbur bo'ladilar. Sosoniylar Vizantiya bilan 387-yilda tinchlik sulhini tuzadilar va bu bitim keyinchalik, 502-yilgacha bo'lgan davrda ittifoqchilik ko'rinishini ham oladi. Sosoniylar Eftalitlarga boy berilgan hududlar va ularga to'lanadigan o'lpon tufayli moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Sosoniylarning bu qiyinchiliklarni xaqning talanishi evaziga bartaraf qilishga urinishlari xalq orasida norozilikni keltirib chiqaradi. V asr ohiri va VI asrlarda (491-529-yillar oralig'ida) Mazdakiylik g'oyasi bayrog'i ostida xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Buning oqibatida Eron Sosoniylari hukmdori Kubod (488-531) xalqni tinchlantirish maqsadida qo'zg'olonchilarga yon beradi va Mazdakni o'z maslahatchisi qilib tayinlaydi. Lekin, Mazdak va uning tarafdorlari Kubodning ukasini taxtga o'tqazdilar, Kubodni esa Xuzistonda joylashgan qo'rg'onga qamab qo'yishadi. Kubod u yerdan qochib Eftalitlardan harbiy yordam so'raydi va taxtni qaytarib oladi⁶.

Iqtisodiy tanazzul, bir qancha hududlarning Eftalitlarga boy berilishi va ularga to'lanadigan og'ir to'lovlar oddiy xalq hayotini og'irlashtirdi va ommaviy ochlik ko'rinishlari avj olib bordi. Tinka-yu madori qurigan xalq Mazdak g'oyalariga ergashdi

¹ Николай Сычев. Книга династий. М.: "Восток-Запад". 2005. -Стр.564.

² Qarang: Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, Soibjon Xoshimov. Vatan tarixi. Birinchi kitob. - T.: "SHARQ", 2016, 109-bet.

³ O'sha manba. 110-bet.

⁴ O'sha manba, o'sha joyda.

⁵ Qarang: Академия Наук СССР. Всемирная Исиория в десяти томах. Том III. М.: "Государственное издательство политической литературы", 1957. -Стр.97.

⁶ O'sha manba, o'sha joyda.

va Eron tarixida chuqur iz qoldirgan qo'zg'alon vujudga keldi. Taxtdan mahrum bo'lgan Kubod o'zining ittifoqchisi va tayanchi bo'lgan Eftalitlardan yordam oladi va yana hokimiyatni qo'lga olib o'z "Homiy"lariga o'lpon to'lashda davom etadi. Eftalitlar ta'sirida vujudga kelgan mazdakiylik g'oyasi bundan keyingi davrlarda ham Erondagi quyi qatlam aholisining norozilik chiqishlarida g'oyaviy asos bo'lib maydonga chiqdi.

540-yillarda Eftalitlar davlati Hindiston yurishida mag'lubiyatga uchraydilar, lekin yurishda qatnashgan qabila va qavmlar shimoliy Hindistonda o'troqlashib qoladilar va mahalliy aholi bilan aralashib yangi "Rajputlar" etnosini tashkil qiladilar⁷.

Shu bilan birga aytib o'tish joizki eftallarning shimoliy Hindistonga yurishlari to'xtatilgan bo'lsada, bu hududdagi bir zamonlari qudratli imperiya bo'lgan Guptalar davlati zaiflashib qoladi va keyinchalik parchalanib ketadi.

Rajputlar ilk o'rta asrlarda shakllana boshlagan etnos bo'lib, keyingi davrlarda Hindistonda harbiy ish bilan shug'ullanuvchi "kshatriylar" kastasi kirishgan. E.N. Uspenskaya rajputlarni "O'rta asrlar Hindistoni ritsarlari" deb ataydi va "rajput" so'zi "podshoh o'g'li" degan manoni bildirishini takidlaydi⁸. Bundan rajputlar ajdodi bo'lgan jangovor xalq Eftalitlarning xarakteri namoyon bo'ladi.

Eftalitlar hukmdori Toromana (V asr ohiri – 510-515-yillar)⁹ hukmronligi davrida 502-yil Eron tarafida turib, Vizantiyaga qarshi urushda qatnashadi va 506-yilda tuzilgan sulhga ko'ra eftalitlar Vizantiya oltinidan ulushlarini oladilar va bu davlatlar o'rtasidagi ittifoqchilik Kubod o'g'li Xusrav I davrida ham davom qilib borsada, sosoniylarda Eftalitlar davlati istibdodidan qutilish uchun mamlakat ichki kuchlari o'trasida birlashuv yuzaga keladi. Shunday vaziyatda Xusrav I Eftalitlarga qarshi urushga tayyorgarlik ko'radi. Tez orada Eron Sosoniylari uchun qudratli ittifoqchi topiladi. Bu qudratli ittifoqchi davlat Eftalitlar qo'l ostidagi hududlar va Buyuk Ipak yo'lini nazoratga olishni ko'zlagan Turk xoqonligi edi.

Eftalitlar hukmdori Gafara davrida (540-565-yillar oralig'i) Eron va Turklarning birlashgan kuchlari Markaziy Osiyoga hujum qiladilar. Gafara taxtdan ag'darilib Faronish (565-567) o'tqaziladi. Lekin u turk va forslar kuchlariga qarshilik ko'rsata olmadi va g'oliblar Eftalitlar hududini taqsimlab olishdi¹⁰.

Eftalitlar davlati mustaqilligini yo'qotishi bir vaqtning o'zida ikkita qudratli davlat ittifoqiga qarshi kurash oqibati bo'ldi va bunga mamlakat hukmron doiralarining uzoqni ko'ra bilmaganligi ham ko'malashdi.

Eftalitlar davlatining inqirozi Gafaraning tashqi siyosatidagi xatosi tufayli ham yuzaga keldi. U 560-yilda Eftalitlar hududi orqali amalga oshirilgan va Eronga yuborilgan Turk missiyasi a'zolarini o'ldirishga buyruq berdi. Bu xato oqibatida Eron

⁷ Николай Сычев. Книга династий. М.: "Восток-Запад". 2005. -Стр.564.

⁸ Qarang: E.N.Успенская. Раджпуты Рыцари Средновековой Индии. Евразя. Санкт-Петербург. 2000. Стр. 9

⁹ O'sha manba, o'sha joyda.

¹⁰ Qarang: O'sha manba. -Стр.565.

va Turk xoqonligi o'rtasida ittifoq vujudga keldi. Bu ittifoq kuchlari 565-yilda Eftalitlarga qaqshatqich zarba berdi va bu davlat o'z mustaqilligini yo'qotdi¹¹.

Eftalitlar hududining bosib olinishi va mamlakat birlashuvi oqibatida Sosoniylar davlati mustahkamlanib oladi. Eftalitlar davlati hududlari egallanishi, aholisining asoratga solinishi oqibatida Sosoniylar davlati iqtisodiy ahvolini o'nglab oladi. Harbiy qo'shin soni va sifati oshadi. Xusrav I bu qo'shini bilan qo'shni hududlarga harbiy yurishlar amalga oshiradi.

Eftalitlar xavfidan qutilgan sosoniylar O'rtayer dengizi mamlakatlari bilan Xitoy va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarini qo'lga kiritish uchun Vizantiya bilan urushlar olib boradilar. Buning natijasida 572-628-yillarda Yaman Sosoniylar qo'l ostiga o'tadi. Hindistonga boradigan savdo yo'li tez rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida Hijoz orqali o'tadigan karvon yo'lining inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. Bu holat faqatgina Hijoz shaharlarigagina emas, balki barcha arab qabilalarining hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.¹²

NATIJALARNI MUHOKAMA QILISH

Eftalitlar davlati parchalanishi va boyliklari talanishi natijasida Eron Sosoniylari kuch qudrati oshdi va o'ziga qo'shni hududlarda ta'siri kuchayib bordi. Oqibatida Sosoniylar Yamanni ishg'ol qildilar. Arablar hududidan o'tuvchi savdo yo'llari ahamiyatini yo'qotdi. Bu arab qabilalari hayotida inqirozli holatni keltirib chiqardi. Uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va tushkunlik markazlashgan davlat tuzilishi bilan yakunlandi. Bu davlat tarixda Arab xalifaligi nomini oldi va uning chegarasi g'arbda bugungi Fransiya janubidan, sharqda esa to Xitoy hududlarigacha bo'lgan yerlarni birlashtiradi. O'zi egallagan hududlar aholisi madaniy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Hindistonda bugungacha yashab kelayotgan xalqlar etnogeneizda ham eftalitlar ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

XULOSA

Eftalitlar tarix sahnasidan izsiz ketmadilar. O'rta asrlar davlatlari iqtisodiy hayotida muhim bo'lgan "Buyuk ipak yo'li" nazoratini qo'lga olgan Eftalitlar qo'shni hududlarga o'z ta'sirini o'tkazganlar. Ular faqat o'zbek xalqi etnogenezi va davlatchiligida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmasdan, ko'plab jahon xalqlari tarixida ham katta rol o'ynagan.

ADABIYOTLAR

1. Николай Сычев. Книга династий. М.: "Восток-Запад". 2005.
2. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov, Soibjon Xoshimov. Vatan tarixi. Birinchi kitob.- T.: "SHARQ", 2016.

¹¹ Qarang: Н.Пигулевская. Сирийские источники по истории народов СССР. М.:1941. –Стр.17.

¹² Машарипов. О. Хоразмнома. Иккинчи китоб. Хоразм : 2007, 7-бет.

3. Академия Наук СССР. Всемирная Исиория в десяти томах. Том III. М.: “Государственное издательство политической литературы”, 1957.
4. Е.Н.Успенская. Раджпуты Рыцари Средновековой Индии. Евразя. Санкт-Петербург. 2000.
5. Н.Пигулевская. Сирийские источники по истории народов СССР. М.:1941.
6. Машарипов. О. Хоразмнома. Иккинчи китоб. Хоразм : 2007.